

Date: 19th April-2026

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TIZIMLARI O‘RTASIDAGI
UZVIYLIKNI TA‘MINLASHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI**

Yusupova Guzal Jabbor qizi

Xudoynazarova Marjona Shoymurod qizi
Qashqadaryo pedagogika texnikumi o‘qituvchilari

**INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR ENSURING CONTINUITY BETWEEN
PRESCHOOL AND PRIMARY EDUCATION SYSTEMS**

Yusupova Guzal Jabbor qizi

Xudoynazarova Marjona Shoymurod qizi
Teachers of the Qashqadaryo Pedagogical College

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim tizimi o‘rtasidagi uzviylikni ta‘minlashning innovatsion metodlari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari, integrativ yondashuvlar, o‘yin texnologiyalari hamda raqamli platformalarning uzviylikni ta‘minlashdagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta‘lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish bolalarning maktabga moslashuv darajasini oshiradi, o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi va emotsional barqarorlikni ta‘minlaydi. Shuningdek, uzviylikni ta‘minlashda pedagoglar hamkorligi va ota-onalar bilan integratsiya muhim omil sifatida asoslab beriladi..

Kalit so‘zlar: uzviylik, maktabgacha ta‘lim, boshlang‘ich ta‘lim, innovatsion metodlar, o‘yin texnologiyalari, integrativ yondashuv, raqamli ta‘lim, kompetensiya, adaptatsiya.

Abstract. This article examines the methodological foundations and innovative approaches to ensuring continuity between preschool and primary education. Continuity is considered as a key pedagogical principle that guarantees the consistency of educational content, methods, and forms across different stages of learning. The study highlights the importance of a competency-based approach in supporting children’s gradual cognitive, social, and emotional development during the transition from preschool to primary school. The study concludes that the implementation of innovative pedagogical strategies plays a crucial role in improving the quality and effectiveness of the educational process, as well as supporting the holistic development of the child.

Keywords: continuity, preschool education, primary education, innovative methods, game-based learning, digital technologies, STEAM approach, competency-based approach, adaptation, educational integration.

Zamonaviy ta‘lim tizimida maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim o‘rtasidagi uzviylikni ta‘minlash dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Uzviylik bu ta‘lim bosqichlari o‘rtasida mazmun, metod va shakllarning izchilligi va uyg‘unligini ta‘minlash jarayonidir. Bugungi kunda ta‘lim jarayonida uzviylikni ta‘minlash bolalarning



Date: 19th April-2026

intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uzviylik asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarning maktabga moslashuvini yengillashtiradi va ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu sababli, maktabgacha va boshlang'ich ta'limni integratsiyalashda innovatsion metodlardan foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylik bugungi ta'lim tizimining eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki bolaning bog'chadan maktabga o'tishi shunchaki bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish emas, balki uning faoliyati, fikrlashi, muloqot qilish usuli, kundalik tartibi va o'ziga bo'lgan munosabatida ham muhim o'zgarishlarni yuzaga keltiradigan davrdir. Agar ana shu o'tish jarayoni puxta o'ylangan metodik asoslar bilan ta'minlanmasa, bolada maktabga nisbatan qiziqishning pasayishi, moslashuvdagi qiyinchiliklar, o'quv topshiriqlariga nisbatan xavotir va ichki zo'riqish holatlari paydo bo'lishi mumkin. Shu bois uzviylikni ta'minlash masalasi faqat dasturlar orasidagi bog'liqlik bilan cheklanib qolmay, balki ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va pedagogik yondashuvlarning bir butun tizim sifatida uyg'unlashuvini talab etadi.

Uzviylikning metodik mohiyati, avvalo, ta'lim mazmunining izchilligida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'limda bolaga berilgan tasavvurlar, shakllantirilgan dastlabki bilim va ko'nikmalar boshlang'ich ta'limda to'satdan yangi, begona tizimga aylanishi emas, balki mantiqiy davom topishi lozim. Masalan, maktabgacha ta'limda bola atrof-muhitni kuzatish, predmetlarni taqqoslash, oddiy xulosalar chiqarish, tinglash va fikrini ifodalash kabi dastlabki ko'nikmalarni egallaydi. Boshlang'ich ta'limda esa aynan shu tayanch ko'nikmalar murakkabroq o'quv faoliyatiga asos bo'lib xizmat qiladi. Demak, uzviylik bolaning ilgari hosil qilgan tajribasini inkor etish emas, uni yangi bosqich talablari asosida rivojlantirishdir.

Uzviylikning yana bir muhim jihati metod va shakllarning mosligidir. Maktabgacha ta'limda bolaning yetakchi faoliyati o'yin bo'lsa, boshlang'ich ta'limda o'quv faoliyati markaziy o'ringa chiqadi. Biroq bu o'tish keskin bo'lmasligi kerak. Agar bola bog'chadagi erkinroq, faol, qiziqarli va hissiy boy muhitdan birdan qat'iy tartib, ko'p yozish, uzoq vaqt bir joyda o'tirish va faqat reproduktiv topshiriqlar bajarishga o'tib qolsa, unda moslashuv murakkablashadi. Shuning uchun boshlang'ich ta'limning ilk bosqichlarida maktabgacha ta'limga xos metodlarning ayrim elementlarini caqlab qolish muhimdir. Ayniqsa, o'yinli topshiriqlar, ko'rgazmalilik, suhbat asosidagi o'qitish, harakatli mashqlar, kichik guruhlarda ishlash kabi usullar bolaga yangi sharoitni yengilroq qabul qilishga yordam beradi. Uzviylik natijaviylikka yo'naltirilgan yondashuv orqali ham ta'minlanadi. Bu degani, ta'lim jarayonida faqat ma'lum bir mavzuni o'rgatish emas, balki bola keyingi bosqichda muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun zarur bo'lgan tayyorgarlikni shakllantirish ko'zda tutiladi. Masalan, maktabgacha ta'limda bola harfni yozishni mukammal bilishi shart bo'lmasligi mumkin, ammo uning qo'l mayda motorikasi, tinglash madaniyati, topshiriqni oxirigacha bajarish odati, kattalar ko'rsatmasiga amal qilish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish ko'nikmasi shakllangan bo'lishi juda muhim. Chunki



Date: 19th April-2026

boshlang'ich ta'limdagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan aynan shu sifatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik qarashlarda uzviylik kompetensiyaviy yondashuv asosida talqin qilinmoqda. Bunda bolaning faqat bilim hajmi emas, balki o'rganganini real vaziyatda qo'llay olish qobiliyati, fikrlash mustaqilligi, muammoni hal qilishga bo'lgan intilishi, muloqot va hamkorlik ko'nikmalari ham muhim deb qaraladi. Demak, uzviylikni ta'minlashdan ko'zlangan maqsad ikki bosqich o'rtasida faqat mavzular ketma-ketligini emas, balki bola shaxsining uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdir.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida uzviylikni samarali tashkil etish an'anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmaydi. Zamonaviy pedagogik amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, bolaning qiziqishi, ehtiyoji, yosh xususiyatlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda innovatsion metodlarni qo'llash ancha samarali natija beradi. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi o'tish davrida innovatsion metodlar bolaga nafaqat yangi bilimlarni egallash, balki yangi sharoitga ruhiy va ijtimoiy jihatdan moslashish imkonini ham yaratadi.

Hozirgi davr bolasi axborot muhitida ulg'aymoqda. U vizual obrazlarni tez qabul qiladi, interaktiv topshiriqlarga qiziqadi, audio va video materiallar orqali o'rganishga moyillik bildiradi. Shu nuqtai nazardan raqamli va interaktiv texnologiyalar uzviylikni ta'minlashning muhim vositalaridan biri bo'lib bormoqda. Turli raqamli platformalar, elektron didaktik o'yinlar, ta'limiy videolar, interaktiv mashqlar va gamifikatsiya elementlari bolalarda o'quv faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Masalan, gamifikatsiya usuli ta'lim topshiriqlarini o'yin elementlari bilan boyitadi. Ball yig'ish, bosqichma-bosqich muvaffaqiyatga erishish, rag'batlantiruvchi belgilar olish kabi elementlar bolada ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Bu ayniqsa bog'chadan maktabga o'tayotgan bola uchun juda muhim, chunki u hali o'yin faoliyatidan to'liq uzilmagan bo'ladi. Interaktiv topshiriqlar esa bolaning passiv tinglovchi emas, faol ishtirokchi bo'lishini ta'minlaydi. Bola ko'radi, eshitadi, javob qaytaradi, tanlaydi, solishtiradi, xulosa qiladi. Natijada uning diqqati barqarorlashadi, topshiriqqa qiziqishi ortadi va o'quv jarayoni unga quruq majburiyat emas, qiziqarli faoliyat sifatida namoyon bo'ladi.

Raqamli texnologiyalarning yana bir afzalligi shundaki, ular individual yondashuv imkonini kengaytiradi. Har bir bolaning qabul qilish sur'ati, qiziqishi, tayyorgarlik darajasi turlicha bo'ladi. Interaktiv platformalar orqali ayrim bolalar uchun yengilroq, boshqalar uchun biroz murakkabroq topshiriqlar berish, ularning o'zlashtirish tezligini kuzatish va mos ravishda ta'limni tashkil qilish mumkin. Bu esa uzviylikni ta'minlashda "hamma uchun bir xil" yondashuvdan voz kechib, bolaning real imkoniyatiga mos rivojlanish yo'lini tanlashga yordam beradi.

Maktabgacha yosh davrida o'yin bolaning tabiiy ehtiyoji va asosiy rivojlantiruvchi faoliyati hisoblanadi. Bola aynan o'yin jarayonida biladi, anglaydi, taqlid qiladi, tasavvurini boyitadi, muloqot qiladi va atrof-muhit qoidalarini o'zlashtiradi. Shuning uchun maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashda o'yin



Date: 19th April-2026

texnologiyalarini chetlab o'tish mumkin emas. Aksincha, ular boshlang'ich ta'limning dastlabki bosqichlarida metodik ko'prik vazifasini bajaradi.

O'yin texnologiyalarining samaradorligi shundaki, ular bolaning tabiiy faolligini saqlab qoladi. Rolli o'yinlar orqali bola turli ijtimoiy rollarni sinab ko'radi, o'z fikrini ifodalashni, vaziyatga mos munosabat bildirishni o'rganadi. Didaktik o'yinlar orqali esa ma'lum bilim va ko'nikmalar qiziqarli shaklda mustahkamlanadi. Simulyatsion mashg'ulotlar bolaning hayotiy vaziyatlarni modellashtirish asosida fikrlashi va harakat qilishiga yordam beradi. Masalan, "kichik maktab", "do'kon", "kutubxona", "tabiatshunos" kabi o'yinlar bolani kelajakdagi o'quv va ijtimoiy muhitga ruhiy jihatdan tayyorlaydi. Eng muhimi, o'yin texnologiyalari bolada maktabga nisbatan qo'rquv emas, qiziqish uyg'otadi. U yangi faoliyatni bosim ostida emas, ichki tayyorgarlik bilan qabul qila boshlaydi. Bu esa moslashuvni osonlashtiradi, emotsional zo'riqishni kamaytiradi va o'quv faoliyatiga silliq o'tishni ta'minlaydi.

Uzviylikni ta'minlashda fanlararo aloqadorlikka asoslangan integrativ yondashuv ham katta ahamiyatga ega. Chunki bola olamni alohida-alohida fanlarga bo'lib emas, yaxlit holda qabul qiladi. U uchun tabiat, rang, shakl, tovush, harakat, son, so'z bir-biridan ajralgan emas. Shuning uchun maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tishda bilimlarni integratsiyalashgan holda berish bolaning tabiiy qabul qilish usuliga mos keladi. Integrativ yondashuv orqali bitta mavzu doirasida bir nechta rivojlantiruvchi vazifalar hal qilinadi. Masalan, "bahor" mavzusi asosida bola tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatadi, ular haqida gapiradi, rasm chizadi, she'r yodlaydi, barg va gullarni sanaydi, oddiy taqqoslashlar qiladi. Bu esa unda nafaqat alohida bilimlar, balki mavzuni turli tomondan idrok etish malakasini ham shakllantiradi. STEAM yondashuv esa bugungi ta'limning eng zamonaviy yo'nalishlaridan biri sifatida bolalarda amaliy fikrlashni, qiziqish asosida o'rganishni, muammoni yechishga intilishni rivojlantiradi. Ushbu yondashuvda ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika elementlari o'zaro uyg'unlashadi. Bunday faoliyatlar orqali bola tayyor javobni yodlashga emas, kuzatish, sinab ko'rish, xato qilish, qayta urinib ko'rish va mustaqil xulosa chiqarishga o'rganadi. Aynan shu jihat uzviylik uchun juda muhim, chunki boshlang'ich ta'limda bola tobora ko'proq mustaqil fikrlashga va amaliy topshiriqlarni bajarishga jalb etiladi. STEAM yondashuv bolalarda ijodiy fikrlash, muammoni hal qilish, sabab-oqibat bog'liqligini tushunish va birgalikda ishlash ko'nikmalarini kuchaytiradi. Bu esa nafaqat ta'lim mazmunini boyitadi, balki maktabgacha va boshlang'ich ta'lim orasidagi metodik uzviylikni ham mustahkamlaydi.

Uzviylikni ta'minlash faqat tarbiyachi yoki faqat boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasidagi vazifa emas. Bu jarayonning muvaffaqiyati ko'p jihatdan hamkorlikka bog'liq. Xususan, tarbiyachi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi va ota-onaning o'zaro kelishilgan faoliyati bolaga yagona rivojlantiruvchi muhit yaratadi. Agar bog'chada bir usul, maktabda mutlaqo boshqa va uyda yana uchinchi yondashuv qo'llansa, bola uchun ichki qarama-qarshilik paydo bo'ladi. Aksincha, ularning talablari, yondashuvlari va maqsadlari bir-biriga yaqinlashsa, bolada ishonch, barqarorlik va izchillik hissi shakllanadi. Tarbiyachi bolaning maktabga tayyorgarligi haqida eng birlamchi va to'liq



Date: 19th April-2026

tasavvurga ega bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi esa ayni shu tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib o'quv jarayonini tashkil etishi kerak. Ota-ona esa bu ikki muhit orasida birlashtiruvchi ko'prik vazifasini bajaradi. Shu bois hamkorlikka asoslangan metodlar doirasida o'zaro suhbatlar, maslahatlar, ochiq mashg'ulotlar, moslashuv dasturlari, bolani kuzatish natijalarini almashish, ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqish kabi shakllar muhim ahamiyatga ega. Hamkorlik modeli uzviylikni amaliy jihatdan ta'minlaydi. U nafaqat bolaga qulay psixologik muhit yaratadi, balki ta'lim jarayonining izchil va maqsadli tashkil etilishiga xizmat qiladi. Eng muhimi, bola o'zini har xil talablar o'rtasida emas, bir-birini davom ettiruvchi tarbiyaviy va ta'limiy muhit ichida his eta boshlaydi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish uzviylikning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Avvalo, bunday yondashuv bolalarning maktabga moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Bola yangi muhitga tushganda o'zini mutlaqo begona joyda emas, avvalgi tajribasining mantiqiy davomida his qiladi. Bu esa ruhiy zo'riqishni kamaytiradi va ta'limga nisbatan ijobiy kayfiyatni shakllantiradi. Shuningdek, innovatsion metodlar o'quv motivatsiyasini oshiradi. Agar bola o'qishni qiziqarli, faol va o'z imkoniyatiga mos jarayon sifatida qabul qilsa, unda o'rganishga ichki ehtiyoj paydo bo'ladi. Aynan ichki motivatsiya keyingi ta'lim bosqichlarida ham muvaffaqiyatning muhim omili hisoblanadi. Bundan tashqari, o'yinli, interaktiv va integrativ faoliyatlar bolada o'ziga ishonchni kuchaytiradi, muvaffaqiyat hissini uyg'otadi va emotsional barqarorlikni ta'minlaydi. Uzviylikning samaradorligi bilimlarning izchilligi bilan ham belgilanadi. Bola ilgari egallagan tajribasi asosida yangi bilimlarni osonroq qabul qiladi, ular orasidagi bog'lanishni tushunadi va o'quv materialini mazmunli o'zlashtiradi. Bu esa ta'lim sifatining oshishiga, vaqt va kuchning tejalishiga, o'qitish natijalarining barqarorlashuviga olib keladi. Umuman olganda, uzviylikni ta'minlashga qaratilgan innovatsion metodlar faqat bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishni yengillashtirib qolmay, balki bolada ta'limga ijobiy munosabat, mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishlash, muammoni hal qilish va ijodkorlik kabi muhim sifatlarni ham shakllantiradi. Shu ma'noda, uzviylik ta'lim tizimining tashkiliy talabi bo'lish bilan birga, bolaning shaxsiy rivojlanish strategiyasining ham muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifasidir. Ushbu jarayonda innovatsion metodlardan xususan, raqamli texnologiyalar, o'yin metodlari, integrativ va kompetensiyaviy yondashuvlardan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Uzviylikni ta'minlash nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki bolalarning shaxs sifatida rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, kelgusida uzviylikni ta'minlashda innovatsion metodlarni yanada keng joriy etish zarur.



Date: 19th April-2026

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Berezovska L., Saraieva I., Britskan T. va boshqalar. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligini ta'minlashda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Revista Eduweb, 2025.
2. Madgapilova N. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim dasturlari o'rtasidagi uzviylik: mazmuniy yondashuvlar. 2026.
3. OECD. Kelajak uchun kuchli maktabgacha ta'lim va parvarish tizimlari. 2025.
4. Child Encyclopedia. Erta bolalik ta'limida uzviy o'rganishning ahamiyati. 2025.
5. Kichuk N. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligi: pedagogik vositalar. 2023.

